

HUNARMANDCHILIKDA USTOZ-SHOGIRD ODOI

Baymurzayeva Oykaram Shodiyevna¹, Cnindaliyeva Farzona Turg‘un qizi²

¹A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedrasи
katta o‘qituvchi, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi talabasi,

Jizzax shahri, O’zbekiston

e-mail: baymurzayeva77@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ustoz-shogird odobi, ustozning kasbiy va shaxsiy fazilatlari nimalardan iborat ekanligi, o’z navbatida shogirdning ham ustoz oldidagi burch va majburiyatlar, kasbiy, shaxsiy fazilatlari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: naqqoshlik, bo‘yrachilik, hunarmand, nafosat.

Аннотация: В статье описывается этикет общения учителя и ученика, профессиональные и личные качества учителя, а также обязанности и обязательства ученика по отношению к учителю, а также его профессиональные и личные качества.

Ключевые слова: роспись, ковроткачество, ремесло, элегантность.

Annotation: This article describes the teacher-student etiquette, the professional and personal qualities of the teacher, and the duties and obligations of the student to the teacher, as well as his professional and personal qualities.

Key words: painting, carpet weaving, craft, elegance.

Hunar o‘rganish qadimdan muqaddas vazifa sanalaladi. O‘tmishda otabobolarimizning yaratgan takrorlanmas, jozibador hunarlari xozirgi davrgacha yuksak, boy meros sifatida qadrlanib kelinmoqda.

Yurtimizning har bir viloyatida o‘ziga xos hunarmandlar markazi bo‘lgan. Masalan, Andijon viloyatida, Samarqand viloyatida, Farg‘ona viloyatida, Namangan va boshqa viloyatlarda xalq hunarmandchiligi gullab yashnagan. Viloyat tumanlarida yashagan hunarmandlar mahallalarga bo‘linib yashaganlar, masalan: zargarlik mahallasi, pichoqchilik mahallasi, misgarlik, bo‘yrachilik, sandiqchilik, aravasozlik, kulolchilik va boshqa mahallalar mavjud bo‘lgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda bo‘yrachi mahallasi bo‘lib u yerda umuman Buxorodagi bo‘yra to‘qiydigan ustalar yashagan.

Kimning mahsuloti sifatli bo‘lsa, xalq o‘shani ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlashga intilgan.

Qadimda har bir hunar muqaddas hisoblangan bo‘lib, u hurmatlanib, e’zozlanib kelingan. Har bir hunarni o‘z ustalari va uning shogirdlari bo‘lgan. Ota-

bobolarimiz ustoz va shogirdlar uchun xos odob-axloq maxsus qonun-qoidalari, urfodatlari,

madaniyatlari, duolari milliy an'analar ishlabchiqilgan bo'lib, bu qoidalarga qat'iy roya qilganlar. Ustozning ham, shogirdlarining ham oldiga qo'yilgan o'ziga yarasha vazifalari, burchi bo'lgan.

Hunarmandchilik sir-asrorlari qadimdan avloddan-avlodga o'tib kelgan. Masalan naqqoshlar naqsh yaratish sir asrorlarini yozib qoldirmaganlar, uni faqat o'z shogirdlari bilganlar. Ular esa yetuk usta bo'lganlaridan so'ng, o'z shogirdlariga ish sirlarini o'rgatgan. Shunday qilib, naqqoshlik san'atini an'ana tariqasida rivojlantirib kelganlar.

Usta o'ziga shogirdlikka o'zining farzandini yoki qarindoshlarining farzandlarini olgan. Shogirdlikka 7-8 yoshdan olingan. 7-12 yillar davomida hunar va o'qish o'rganilgan. Shogirdlar bilan kunduz kuni ishlab, kechqurun esa ustoz rahbarligida savod chiqarilgan. Shogirdlar geometriya va kimyoni o'rganganlar. Qachonki shogird o'zi mustaqil ishlay olgandan keyin ustalar uning ishlarini muhokama qilishib, so'ngra "usta" degan nom berilgan.

Usta farzandiga yoshligida o'z kasbini o'rgatib borgan. Agar ustuning farzandi bo'lmasa, yaqin qarindoshining farzandlariga o'rgatgan. Shuning tariqa shogirdlar kelajakda yetuk hunarmand bo'lishiga zamin yaratilgan. Xullas kasbning avlodga meros bo'lib qolishi an'ana bo'lib, rivojlanib kelgan.

O'tmishda ustalar madrasalarda tahsil olganlar. Ular adabiyot, musiqa, tarix, kimyo, matematika fanlarini yaxshi bilganlar shuning uchun ham xalq ustalari bilimdon, zukko insonlar hisoblanishgan. Shu bilan birga ustoz-shogird o'z shaxsiy va kasbiy fazilarlarga qatiyy amal qilganlar. Ustoz mehr-muruvvatli, marhamatli, saxiylik, odoblilik, shirin suxan va ochiq yuzlilik, sabr-toqatlilik, talabchanlik, qanoatatlilik, pokizalik, muloyimlilik, samimiylilik, ziyraklik, or-nomuslilik, kattalarni va ota-onani hurmat qilish, shafqatli bo'lish kabi shaxsiy fazilarlarga, shuningdek o'z bilim va hunarlarini shogirdlarga oson yo'l bilan o'rgata olishi, muomila va muloqat o'rnata olishi, tashabbusga, ijodga ilhomlantira olishi, o'z hunariga qiziqishi va uni yoshlarga sidqidilidan o'rgata olishi, o'z hunari sir-asrorlarini o'zidan keyingi shogirdlariga qoldirishi va boshqa bir qancha shaxsiy fazilatlarga ham ega bo'lganlar.

Shu o'rinda shogirdning ham ustoz oldida o'z majburiyatlari bo'lgan. Ustozga itoatli, sadoqatli bo'lish, ustozning yuzini yerga qaratadigan ish qilmaslik, sabr-toqatlilik, irodali bo'lish, ustozning ruhsatisiz uning narsalariga qo'l tekkizmaslik, boshqa birovning ham mulkiga ko'z olaytirmaslik, ustozdan maslahat so'rash kerak bo'lsa, oldin ijozat so'rash, ustozga e'tiroz etmaslik,

ustozga to‘liq itoat etgan holda an’analarni davom ettirish kabi shogirdlik odobi, burch va majburiyatları bo‘lgan.

O‘z o‘rnida shogirdlar ham bir-biriga odob doirasida munosabatda bo‘lgan. Ya’ni, shogirdlar bir-biriga samimiy munosabatda bo‘lish, bir-birining aybini faqat o‘ziga aytish, omonatga xiyonat qilmaslik, ziyon yetkazmaslik, hasad, g‘iybat, ig‘vo qilmaslik, yolg‘on so‘zlamaslik, do‘sining muvaffaqiyatidan quvonish kabi samimiy fazilatlarga ega bo‘lganlar.

Har bir avlod hunarmandlari har tomonlama, nafaqat go‘zallik va nafosat yaratishda, balki bilim, odob-ahloq, insoniylik, ezgulik va boshqa sifatlari orqali bor mahoratlari va bilimlarini ayamaganliklari, o‘z zamonasi va kelajak avlod uchun qanchalik qayg‘urganliklarining guvohi bo‘lamiz. Shuning uchun ham xalqimizning madaniy merosiga e‘tiborni yanada oshirishimiz, uni avaylab-asrashimiz nihoyatda muhimdir.

Xalq hunarmandchiligini va ustalar merosini o‘rganish, ularning yo‘lidan borish, uning miliyligini asrab qolish hamda davom ettirish bugungi kun ijodkorlarining asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.S.Bulatov, P. P. Shabararov, M.A. Rasulov “Naqqoshlik” O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2010 y. 56-bet
2. I.U. Izbasarov “Naqqoshlik”. O‘quv qo‘llanma. Samarqand-2021 y. 16-20 betlar.
3. K.G‘ulomov, S.S. Bulatov Sharqona-usta-shogird odobi. O‘z ROUMTV O‘quv adabiyotlar, jurnal va byullitenlarni nashrga tayyorlashl markazi, 2000.